

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida " Ipak yo'li bug'doy innovatsiyalari alyansi" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman HISOBOTI

Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-g'arbiy qishloq xo'jaligi universiteti, Ipak yo'li bug'doy innovatsiyalari alyansi va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti bilan hamkorlikda "Ipak yo'li bug'doy innovatsiyalari alyansi" ning xalqaro ilmiy anjumani 2025-yilning 20-23-avgust kunlari Samarqand davlat universitetida o'tkaziladi.



Anjumanda Xitoyning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlaridan 25 ga yaqin bug'doy tadqiqotlari bo'yicha yetakchi professor-o'qituvchilar, olimlar va soha vakillari ishtirok etadi. Jumladan, Xitoy fanlar akademiyasi, Dingshi qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi, Henan texnologiyalar universiteti, Ningshia universiteti, Shimoli-g'arbiy qishloq xo'jaligi universiteti olimlari bug'doy bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va bu yo'nalishda erishilgan so'nggi natijalar bo'yicha ma'ruzalar qiladilar.

Shuningdek, anjuman ishida Rossiya fanlar akademiyasi Sibir bo'limi O'simliklar genetikasi va seleksiyasi instituti va Pokistonning Qurg'oqchil mintaqa qishloq xo'jaligi universiteti olimlari ham ishtirok etadi.



Mazkur ilmiy-amaliy anjumanda iqlim o'zgarishlari va qurg'oqchilikka chidamli yangi bug'doy navlarini yaratishda gen muhandisligi usullaridan foydalanish, bug'doy hosildorligini oshirish, uning kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashishning uyg'unlashgan usullarini ishlab chiqish bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan tadqiqot natijalari yetakchi olimlar tomonidan muhokama qilinadi. Asosiy maqsad, Ipak yo'li mamlakatlarida bug'doy bo'yicha ilmiy tadqiqotlar saviyasini oshirish va o'zaro tajribalar almashish orqali mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashdan iborat.

Anjuman ochilish marosimida Samarqand davlat universiteti rektori prof. Rustam Xalmuradov va Shimoli-g'arbiy qishloq xo'jaligi universiteti prorektori prof. Fang Yulin tomonidan Samarqand davlat universitetida "Xitoy-O'zbekiston qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi markazi"ni tashkil etish shartnomasi imzolanadi. Shuningdek, tadbir davomida ushbu markazning ramziy ochilish marosimi bo'lib o'tadi. Ushbu tashabbus ikki mamlakatning o'xshash ekologik hududlarida bug'doy va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining ilmiy asoslangan so'nggi yutuqlar

asosida hosildorlikni oshirish va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur markazda O'zbekiston sharoitida tuproq sho'rlanishi, qurg'oqchilik va iqlim o'zgarishlariga mos yangi bug'doy va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini yaratish, bu sohada ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish, shunigdek, selektsiya va urug'chilik sohasida yangi avlod mutaxassislarini hamkorlikda tayyorlash maqsad qilingan.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

